

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi hamda Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga kirish imtihonlari yuzasidan

PRESS-RELIZ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida boks va gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 22-iyuldagi PF-94-son Farmoni ijrosi doirasida joriy yilning **27-28-29-30-avgust kunlari Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi hamda Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga kirish imtihonlari o'tkazildi.**

Kiriish imtihonlari ikki bosqichda tashkil etildi.

Birinchi bosqich imtihonlar **27-28-29-avgust kunlari** soat **08:00 dan 17:00 gacha** quyidagi manzillarda bo'lib o'tdi:

1.Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, "Sportchilar" ko'chasi, 19-uyda joylashgan **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** (*Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun*);

2.Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sariko'l ko'chasida joylashgan **Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi** (*Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun*).

Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun birinchi bosqich imtihonlari:

—umumiy jismoniy tayyorgarlik – 6 ta yo'nalish bo'yicha (jami topshiriqlar uchun 30 ball beriladi);

—maxsus jismoniy tayyorgarlik – 3 ta yo'nalish bo'yicha (jami topshiriqlar uchun 70 ball beriladi).

Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- 60 m. masofaga yugurish;
- 1000 m. masofaga yugurish;
- turnikda tortilish;
- past turnikda 90° tortilish;
- turgan joyidan uzunlikka sakrash;

- oldinga egilish.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- soya bilan jang;
- qoplar bilan ishlash;
- sparing tushish.

Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun birinchi bosqich imtihonlar:

- umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha;
- maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha.

Badiiy gimnastika yo'nalishi bo'yicha umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- yotgan holda qo'l va oyoqlarni juftlashtirish (Pres) 10 soniya;
- asosiy holat oldinga egilib, oyoqlarni quchoqlab ko'krak qafasi bilan tizzalarga yopishib (5 soniya) ushlab turish;
- 30 soniya davomida arqonda sakrash;
- arqon bilan bir urinishda ikki martalik sakrash;
- 50 sm balandlikdan o'ng va chap oyoqda shpagatga o'tirish hamda ikkita o'rindiqlarda o'rta shpagatga o'tirish;
- qo'llarni bukmagan holda tananing old va orqa qismiga o'tkazish.

Badiiy gimnastika yo'nalishi bo'yicha maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- yerga yotib, belni vertikalga ko'tarish;
- qorinda yotgan holda ikki oyoqni ushlash;
- risk mashqlari (arqon bilan mashq bajarish);
- risk mashqlari (halqa yoki to'p bilan);
- risk mashqlari (arqondan tashqari barchasi);
- aylanishlar mashqi ikkisidan biri (Fuyete yoki Koltco);
- aylanishlar mashqi ikkisidan biri (Fuyete yoki Panshe);
- aylanishlar mashqi (Fuyete);
- muvozanat saqlash o'ng va chap oyoqlarni yonga ko'tarish;

- katta sakrashlar (shpagatga);
- katta sakrashlar (shpagat koltsoga);
- jette anturnan.

Sport gimnastikasi yo‘nalishi bo‘yicha umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- joyidan uzunlikka sakrash;
- gimnastika narvonida oyoqlarni ko‘tarish;
- 30 soniya davomida sakrash (marta) $N = 60$ sm;
- 60 soniya davomida sakrash (marta) $N = 40$ sm;
- gimnastika devorida osilib oyoqlarni ko‘tarish (bajarish sifatiga qarab marta);
- halqaga chiqish va tushish (marta)
- oyoqlarni ochgan holda (spichag);
- gimnastika devorida osilgan holatda oyoqlarni to‘liq ko‘tarish (10 marta vaqtga).

Sport gimnastikasi yo‘nalishi bo‘yicha maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari:

- qo‘lda tik turish;
- qo‘shpoyada tayanch yordamida 90 gradus;
- qo‘shpoyada tayanch yordamida 180 gradus oyoqlarni ushlab turish;
- doira shaklida aylanish (soni);
- oyoqlar ochilgan holatda spichag (marta);
- kuch bilan aylanib chiqish;
- 60 soniya tayanch holatda qo‘llarda depsinish (bajarish sifatiga qarab marta);
- past turnikda 45 gradusda tebranish (bajarish sifatiga qarab marta);
- egiluvchanlik uchun mashqlar;
- oyoqlar juft holatda oldinga egilish;
- ko‘prik;
- shpagat (o‘ng, to‘g‘ri, chap).

Mazkur sport maktablariga kirish imtihonlarining ikkinchi bosqichi 30-avgust kuni 1 smenada soat 9:00 dan 10:00 gacha quyidagi manzillarda o‘tkazildi:

1.Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, "Sportchilar" ko'chasi, 19-uyda joylashgan **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** (*Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun*);

2.Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Mahtumquli ko'chasida joylashgan **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi** (*Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun*).

Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun ikkinchi bosqich imtihonlari (test):

—5–6 hamda 9–10 sinflar uchun psixologik test 15 ta, intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha 20 ta test shaklidagi topshiriq (jami 35 ta test topshiriqlari uchun 50 ball beriladi).

Eslatma, talabgorlarga topshiriqlarni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Talabgorlarga topshiriqlarni bajarish uchun belgilangan vaqtdan (60 daqiqa) tashqari, kirish imtihonining javoblar varag'ini belgilash uchun qo'shimcha vaqt berilmaydi.

Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi uchun ikkinchi bosqich imtihonlari (test):

Ikkinchi bosqichda test sinovlari har ikkala yo'nalish (badiiy gimnastika hamda sport gimnastikasi yo'nalishlari) uchun:

—1-2-3-4-sinflar uchun psixologik test 10 ta, intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha 15 ta test (jami 25 ta test 35 ball beriladi);

—5-6-7-8-sinflar uchun psixologik test 15 ta, intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha 20 ta test (jami 35 ta test topshiriqlariga 50 ball beriladi).

Eslatma, talabgorlarga topshiriqlarni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi.

Talabgorlarga topshiriqlarni bajarish uchun belgilangan vaqtdan (60 daqiqa) tashqari, kirish imtihonining javoblar varag'ini belgilash uchun qo'shimcha vaqt berilmaydi.

Ma'lumot o'rnida, sport maktablarining **qabul tartibi**, takomillashtirilgan **o'quv rejalari, shtatlar jadvali** ishlab chiqildi hamda **Boks maktabining 5-6 va 9-10-sinflariga 24 nafardan, Gimnastika maktabining 1-8-sinflariga** qabul kvotalari belgilandi.

Joriy yilning **7-25 avgust** kunlari sport maktablariga **2024-2025-o'quv yili** uchun o'quvchilarning **hujjatlarini qabul qilish** jarayoni amalga oshirildi.

Ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida hujjatlarni qabul qilish onlayn shaklda **ariza.piima.uz** sayti orqali amalga oshirildi. Hujjatlar qabuli yakuniga ko‘ra kelib tushgan jami arizalar soni **1 644 tani** tashkil etdi, shundan:

Boks maktabi uchun kelib tushgan arizalar soni **1 245 ta**;

Gimnastika maktabiga **399 ta**.

Axborot xizmati

(99 875 03 12)